
HUSNIXAT NEGA KERAK?

Ernazarova Laylo Abdusaitovna

O‘z-FIN pedagogika instituti assistenti

FarDU mustaqil izlanuvchisi

Suvonova Malika

O‘z-FIN pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada husnixat egasining siyrati yozuvi orqali aks etishi, inson xulq-atvorini uning yozuvidan bilib olish mumkinligi borasida mulohazalar bayon etilgan. Kishining yozuvi aniq, tushunarli bo‘lsa, badiiy va estetik didi ham yuqori bo‘ladi. Bee‘tiborlik esa hafsalasizlik, dangasalik belgisi. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish, husnixat texnologiyasiga doir ma‘lumotlar, chiroyli yozishga o‘rgatishning usul va tamoyillari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: yozuv, husnixat qoidalari, harflar qiyaligi, harf unsurlari, qo‘l harakati, chiroyli yozuv.

Abstract: In this article, there are comments on how the character of the owner of the husnixat is reflected through his writing, and how human behavior can be learned from his writing. A person whose handwriting is clear and understandable has high artistic and aesthetic taste. Inattention is a sign of frustration and laziness. In this article, the formation of good writing skills of elementary school students, information about calligraphy technology, methods and principles of teaching good writing are highlighted.

Key words: writing, rules of etiquette, slant of letters, elements of letters, hand movements, beautiful writing.

Абстрактный; В данной статье приводятся комментарии о том, как характер владельца уснихата отражается в его письме и как по его письме можно узнать поведение человека. Человек, чей почерк четкий и понятный, обладает высоким художественно-эстетическим вкусом. Невнимательность – признак разочарования и лени. В данной статье освещены вопросы формирования навыков хорошего письма у учащихся младших классов, сведения о технологии каллиграфии, методах и принципах обучения хорошему письму.

Ключевые слова: письмо, правила этикета, наклон букв, элементы письма, движения рук, красивое письмо.

KIRISH

Husnixat darslari birinchi sinfda savod o‘rgatish davri tugagandan so‘ng, 3-chorakdan boshlab alohida olib boriladi. Ammo dastlabki husnixat malakalari o‘quvchilar maktabga qadam qo‘ygandan boshlab amalga oshiriladi, ya‘ni yozuv darslarida husnixat malakalari rivojlantiriladi. Birinchi sinfda yozuv darslari husnixat malakasini o‘qitish orqali amalga oshiriladi. Chiroyli va ozoda yozilgan xat shaxsning madaniyatini va uni o‘qiydigan kishiga nisbatan hurmatini ham belgilaydi. Hozirgi kunda fan-texnika taraqqiyotining o‘sishi orqali kundalik hayotimizda turli-tuman(qog‘ozlardan) hujjatlardan keng foydalanamiz, har xil ish yuritish hujjatlari, ish qog‘ozlari, hisobotlar keng o‘rin olmoqda. Bularning hammasi faqat chiroyli va aniq yozish bilan birga, tezlikni ham talab etadi. O‘quvchilarda chiroyli yozuv malakalarini hosil qilish uchun, birinchi navbatda, diqqat, sezgi, idrok etish, xotira kabi psixofiziologik funksiyalar yaxshi yo‘naltirilmaganligiga guvoh bo‘lamiz. Shuning uchun

quyidagi usullar o'quvchilarni yuqorida ta'kidlab o'tgan fazilatlarini yuzaga chiqarishga yordam beradi. Bu esa o'quvchilarni chiroyli yozishga va mantlar tuzishga undaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini husnixatga o'rgatishning asosiy vazifasi: ularga husnixat yuzasidan amaliy bilimlar berish; tez, to'g'ri va chiroyli yozuvga o'rgatish. Husnixat va uni o'qitish metodikasi ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarining darajasini

o'rganadi, o'qitishning muvaffaqiyati va kamchiliklarining sababini aniqlaydi, grafik xatolarni tekshiradi va ularning oldini olish, yo'qotish usullarini topadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, chiroyli yozuv alohida ahamiyatga ega. Boshlang'ich ta'limda nafaqat bilim beriladi, balki savod chiqarish masalalarini ham qamrab oladi. Insonga yozuv faqatgina ta'lim sohasida emas, kundalik hayotning har bir jabhasida zarur. Shunday ekan, har bir shaxs husnixatiga e'tibor qaratishi, o'z ustida ishlashi lozim.

References:

1. G'ulomov M. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini husnixatga o'rgatish" . –T,1970
2. G'ulomov M. "Chiroyli yozuvni shakllantirish". –T,1992
3. Mahmudov N., va b. Davlat tilida ish yuritish (9-nashri). – Toshkent, 2020.
4. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Davlat tilida ish yuritish. –Toshkent, 2015.
5. Xodjayeva N.(2019), "Yozuv va psixologiya: Inson ruhiyatidagi o'rni". –Toshkent.: Psixologiya instituti.
6. Murodov O., (2021). "Yozuv va globalizatsiya: Madaniyatlararo muloqot". –Toshkent.: O'zbekiston Milliy Universiteti.